

O‘ZBEK BADIY MATNLARIDA INTEREKTUAL ALOQA VA UNING ESTETIK FUNKSIYASI

Ikramova Muhtaram

Namangan Davlat Pedagogika Institutining tayanch doktoranti
muhtaramikramova@gmail.com

Shamilova Zuhra

Namangan Davlat Pedagogika Institutining 1-bosqich talabasi
khusnitdinovnazuhra@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek badiiy matnlarida intertekstual aloqa hodisasi va uning estetik funksiyasi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Nazariy asos sifatida Baxtin, Kristeva va Genette yondashuvlari ko‘rib chiqilib, klassik va zamonaviy adabiyotda intertekstual elementlarning semantik qatlamni boyitish va o‘quvchi idrokini chuqurlashtirishdagi roli o‘rganiladi. Muammolar aniqlanib, ularning yechimlari va amaliy misollar orqali ilmiy asosda tushuntiriladi. Shu yo‘l bilan maqola intertekstual aloqaning o‘zbek badiiy matnlarida badiiy-estetik funksiyasini aniqlash va baholashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: intertekstual aloqa, estetik funksiyasi, semantik qatlam, madaniy kontekst, badiiy-estetik ta’sir, alluziya, sitata, reminissensiya, parodiya, dialogizm, transformatsiya, nazariy yondashuv, tizimli tahlil

INTERTEXTUAL RELATIONS AND THEIR AESTHETIC FUNCTION IN UZBEK LITERARY TEXTS

Abstract. The article analyzes the phenomenon of intertextual relations and their aesthetic function in Uzbek literary texts from a scientific perspective. The theoretical basis includes the approaches of Bakhtin, Kristeva, and Genette, and the role of intertextual elements in enriching the semantic layers and deepening the reader’s perception in both classical and contemporary literature is examined. Problems are identified, and their solutions are explained with practical examples based on scientific analysis. Thus, the article is aimed at determining and evaluating the aesthetic function of intertextual relations in Uzbek literary texts.

Keywords: intertextual relations, aesthetic function, semantic layer, cultural context, literary-aesthetic effect, allusion, quotation, reminiscence, parody, dialogism, transformation, theoretical approach, systematic analysis

ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНЫЕ СВЯЗИ И ИХ ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ В УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ

Аннотация. В статье анализируется феномен интертекстуальных связей и их эстетическая функция в узбекских художественных текстах с научной точки зрения. В качестве теоретической основы рассматриваются подходы Бахтина, Крестева и Ж. Женетта, а также изучается роль интертекстуальных элементов в обогащении семантических слоёв текста и углублении восприятия читателя как в классической, так и в современной литературе. Выявляются проблемы, и их решения объясняются с использованием практических примеров на основе научного анализа. Таким образом, статья направлена на определение и оценку эстетической функции интертекстуальных связей в узбекских художественных текстах.

Ключевые слова: интертекстуальные связи, эстетическая функция, семантический слой, культурный контекст, художественно-эстетический эффект, аллюзия, цитата, реминисценция, пародия, диалогизм, трансформация, теоретический подход, систематический анализ

Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy matnni o‘rganish faqat uning ichki mazmuni yoki syujeti bilan cheklanib qolmaydi. So‘nggi yillarda matnni kengroq madaniy va adabiy kontekstda tahlil qilishga qaratilgan yondashuvlar keng rivojlanmoqda. Shunday ilmiy yo‘nalishlardan biri intertekstual aloqa nazariyasidir. Ushbu nazariya badiiy matnlar o‘rtasidagi aloqalarni, ularning o‘zaro ta‘sirini hamda badiiy ma‘no shakllanishidagi rolini o‘rganishga qaratilgan. Intertekstual yondashuvga ko‘ra, har bir badiiy matn avval yaratilgan matnlar bilan muayyan darajada bog‘liq bo‘ladi va shu aloqalar orqali yangi estetik mazmun hosil qiladi.

Intertekstual aloqa tushunchasi XX asr adabiyotshunosligi va tilshunosligida shakllangan muhim nazariy konsepsiyalardan biridir. Ushbu termin ilmiy muomalaga fransuz olimasi Yuliya Kristeva tomonidan kiritilgan bo‘lib, u rus olimi Mixail Baxtinning dialogizm nazariyasiga tayanadi. Baxtin badiiy matnni boshqa matnlar bilan doimiy “dialog” holatida mavjud bo‘ladigan tizim sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, har qanday matn o‘zidan oldingi madaniy va adabiy tajribalar bilan bog‘langan bo‘lib, ulardan mustaqil holda mavjud bo‘la olmaydi. Kristeva ushbu g‘oyani rivojlantirib, har bir matnni boshqa matnlarning transformatsiyasi sifatida izohlaydi. Natijada badiiy asar turli matn qatlamlari va madaniy kodlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadigan murakkab semantik tizim sifatida qoraladi.

Intertekstual aloqa nazariyasi keyinchalik ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan rivojlantirildi. Masalan, Roland Bart badiiy matnni ko‘p qatlamli ma‘nolar tizimi sifatida talqin qilib, unda turli madaniy kodlar va matnlararo aloqalar mavjudligini ta‘kidlaydi. Gerard Genette esa intertekstual munosabatlarni tizimli ravishda tasniflab, ularni sitata, alluziya, reminissensiya, parodiya kabi shakllarga ajratadi. Ushbu nazariy qarashlar badiiy matnni yangi metodologik asosda o‘rganish imkonini beradi va uning semantik hamda estetik tuzilishini chuqurroq tahlil qilishga xizmat qiladi.

O‘zbek adabiyotida ham intertekstual aloqa hodisasi muhim o‘rin tutadi. Milliy adabiyotimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, badiiy matnlarning ko‘plab qatlamlari avvalgi adabiy an‘ana, folklor motivlari, tarixiy voqealar yoki mashhur adabiy obrazlar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, klassik adabiyot an‘analari keyingi davr adabiyotida ham muhim estetik manba sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchilar ko‘pincha klassik asarlarga ishora qilish, mashhur obrazlarni qayta talqin qilish yoki tarixiy matn elementlarini yangi kontekstda qo‘llash orqali badiiy matnning mazmuniy qatlamlarini boyitadi.

Intertekstual elementlarning mavjudligi badiiy matnning estetik ta‘sirini sezilarli darajada kuchaytiradi. Chunki bunday elementlar o‘quvchini boshqa matnlar va madaniy kontekstlar bilan bog‘laydi. Natijada matnni idrok etish jarayoni yanada murakkablashadi va o‘quvchi matnni turli ma‘no qatlamlari orqali talqin qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, alluziya yoki reminissensiya orqali yozuvchi avvalgi matnga murojaat qilib, yangi badiiy ma‘no yaratadi. Bu jarayon badiiy matnning semantik boyligini oshirish bilan birga uning estetik funksiyasini ham kuchaytiradi.

Shu bilan birga, o‘zbek adabiyotshunosligida intertekstual aloqa masalasi hali yetarli darajada tizimli o‘rganilmagan sohalaridan biri hisoblanadi. Ko‘plab tadqiqotlarda matnlararo bog‘liqlik faqat umumiy tarzda qayd etiladi, biroq uning badiiy tuzilishdagi o‘rni va estetik funksiyasi chuqur tahlil qilinmaydi. Holbuki, intertekstual elementlar badiiy matnning semantik strukturasi shakllantirishda, uning estetik ta‘sir kuchini oshirishda hamda o‘quvchi idrokini faollashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli o‘zbek badiiy matnlarida intertekstual aloqaning shakllari, funksiyalari va estetik imkoniyatlarini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda o‘zbek badiiy matnlarida uchraydigan intertekstual aloqa hodisasi, uning badiiy tuzilishdagi o‘rni hamda estetik funksiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida intertekstual elementlarning turli shakllari aniqlanadi va ularning badiiy matn mazmunini boyitishdagi roli ilmiy asosda yoritiladi.

Adabiyotshunoslikda badiiy matnni o‘rganish odatda uning mazmuni, syujeti yoki badiiy tasvir vositalariga e’tibor qaratish bilan tugallanmaydi. Shu bilan birga, so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, badiiy matn boshqa matnlar, tarixiy manbalar, madaniy an‘analari va avvalgi adabiy tajribalar bilan doimiy bog‘lanishda shakllanadi. Aynan shu murakkab aloqalar sistemi intertekstual aloqa deb ataladi. O‘zbek adabiyotshunosligida bu hodisa hali to‘liq tizimli ravishda o‘rganilmagan va uning estetik funksiyalari yetarli darajada ilmiy tahlil qilinmagan. Shu sababli intertekstual aloqa o‘zbek badiiy matnlarida dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi

Birinchi muammo bu nazariy jihatdan yetarli o‘rganilmaganlikdir. Intertekstual aloqa tushunchasi dastlab Mixail Baxtin tomonidan dialogizm nazariyasi asosida ishlab chiqilgan. Baxtin badiiy matnni boshqa matnlar bilan doimiy dialogga kirishuvchi tizim sifatida talqin qiladi va har bir matn o‘zidan oldingi madaniy va adabiy tajribalar bilan uzviy bog‘langanligini ta’kidlaydi. Keyinchalik Yuliya Kristeva intertekstualitet tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, har bir matnni boshqa matnlarning transformatsiyasi sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, Roland Bart matnni cheksiz ma’nolar tizimi sifatida ko‘rib, unda turli madaniy kodlar va matnlararo aloqalar mavjudligini ta’kidlaydi. O‘zbek adabiyotshunosligida esa bu nazariy yondashuvlar faqat umumiy tarzda tilga olingan va intertekstual aloqaning shakllari, turlari va estetik funksiyalari yetarlicha tahlil qilinmagan

Ikkinchi muammo bu badiiy matndagi intertekstual elementlarning yetarlicha tahlil qilinmaganligidir. Klassik o‘zbek adabiyoti, masalan Alisher Navoiy, Furqat, Abdulla Qodiriy va boshqa yozuvchilar asarlarida alluziya, sitata, reminissensiya va tarixiy-madaniy ishoralar ko‘p uchraydi. Shu bilan birga zamonaviy o‘zbek nasrida ham yozuvchilar oldingi matnlar va klassik an‘analarga murojaat qiladi, lekin bu elementlarning badiiy tuzilishga, semantik qatlamga va o‘quvchi idrokiga qo‘shadigan hissasi yetarlicha ilmiy asosda o‘rganilmagan. Natijada o‘zbek adabiyoti matnlarida intertekstual aloqaning estetik funksiyasi va uning o‘quvchiga badiiy ta’siri yetarli darajada tushuntirilmagan

Uchinchi muammo metodologikdir. Ko‘plab tadqiqotlarda intertekstual aloqa faqat umumiy tarzda qayd etiladi va uning badiiy matnning estetik tuzilishidagi o‘rni, semantik qatlamlarga ta’siri va o‘quvchi idrokiga qo‘shadigan hissasi tahlil qilinmaydi. Shu sababli ilmiy maqolalarda intertekstual elementlarni aniqlash, ularni tasniflash va badiiy-estetik funksiyasini baholash uchun tizimli metodologiya yetishmaydi. O‘zbek badiiy matnlarida bu metodologik bo‘shliq hali to‘liq to‘ldirilmagan

To‘rtinchi muammo bu intertekstual aloqaning o‘zbek matnlarida estetik funksiyasini yetarlicha yoritilmaganidir. Intertekstual elementlar matnning semantik qatlamlarini boyitadi, o‘quvchi idrokini murakkablashtiradi, badiiy matnga yangi ma’no va hissiy ta’sir beradi. Shu bilan birga, klassik va zamonaviy o‘zbek asarlarida bu jarayonning badiiy-estetik ta’sir mexanizmi ilmiy asosda tahlil qilinmagan. Natijada intertekstual aloqaning matnni boyituvchi va estetik ta’sir kuchini oshiruvchi roli yetarlicha ko‘rsatib berilmagan

Badiiy matnlarda intertekstual aloqaning nazariy asoslarini chuqurroq o‘rganish uchun avvalo mavjud yondashuvlarni o‘zbek badiiy matnlariga moslab tahlil qilish zarur. Mixail Baxtin dialogizm nazariyasi asosida matnlarni boshqa matnlar bilan doimiy dialogda mavjud deb hisoblaydi. U fikricha har bir matn avvalgi matnlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, madaniy va adabiy xotirani aks ettiradi. O‘zbek adabiyotida masalan Alisher Navoiy xamsa asarlarida turli epik va lirik motivlar bilan uzviy bog‘lanishni o‘rnatgan. Bu esa matnning semantik qatlamlarini boyitadi va o‘quvchi idrokini kengaytiradi. Yuliya Kristeva intertekstualitet nazariyasi orqali har bir matnni avvalgi matnlarning transformatsiyasi sifatida o‘qish mumkinligini ta’kidlaydi. Zamonaviy o‘zbek nasrida masalan T. Narmanguzar asarlarida klassik adabiyotga ishora qiluvchi elementlar intertekstual transformatsiya sifatida tahlil qilinishi mumkin. Gerard Genette esa intertekstual aloqaning shakllarini tizimli ravishda tasniflab, sitata, alluziya, parodiya va reminissensiya kabi turli vositalarni ajratadi.

Nazariy jihatdan bu yondashuvlarni o‘zbek badiiy matnlariga tatbiq etish orqali intertekstual aloqaning semantik qatlamlarga qo‘shadigan hissasi, matnning o‘quvchi idrokiga ta’siri va badiiy-estetik funksiyasini ilmiy asosda tushuntirish mumkin. Masalan Alisher Navoiy xamsasidagi turli epik motivlar boshqa klassik manbalar bilan uzviy bog‘langanligi matnni boyitadi va o‘quvchi idrokini kengaytiradi

Klassik o‘zbek adabiyotida Alisher Navoiy, Furqat, Abdulla Qodiriy va boshqa yozuvchilar asarlarida alluziya, sitata, reminissensiya va tarixiy-madaniy ishoralar ko‘p uchraydi. Shu bilan birga zamonaviy o‘zbek nasrida ham yozuvchilar oldingi matnlar va klassik an’analarga murojaat qiladi, lekin bu elementlarning badiiy tuzilishga, semantik qatlamga va o‘quvchi idrokiga qo‘shadigan hissasi yetarlicha ilmiy asosda o‘rganilmagan. Masalan Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida tarixiy shaxslar va voqealarga bog‘langan alluziya matnga estetik boylik qo‘shadi va o‘quvchi idrokini kengaytiradi. Shu sababli badiiy matndagi intertekstual elementlarni aniqlash, tasniflash va ularning estetik funksiyasini baholash bo‘yicha tizimli yondashuv ishlab chiqish zarur

Ko‘plab tadqiqotlarda intertekstual aloqa faqat umumiy tarzda qayd etiladi va uning badiiy matnning estetik tuzilishidagi o‘rni, semantik qatlamlarga ta’siri va o‘quvchi idrokiga qo‘shadigan hissasi tahlil qilinmaydi. Shu sababli ilmiy maqolalarda intertekstual elementlarni aniqlash, ularni tasniflash va badiiy-estetik funksiyasini baholash uchun tizimli metodologiya yetishmaydi. Masalan intertekstual vositalarni sitata, alluziya, reminissensiya kabi kategoriyalarga ajratib, ularning badiiy tuzilishga va o‘quvchi idrokiga ta’sirini o‘lchash amaliyoti bu metodologik bo‘shliqni to‘ldirish imkonini beradi.

Intertekstual elementlar matnning semantik qatlamlarini boyitadi, o‘quvchi idrokini murakkablashtiradi va badiiy matnga yangi ma’no hamda hissiy ta’sir beradi. Masalan Abdulla Qodiriy romanidagi tarixiy shaxslar va voqealar bilan bog‘langan alluziya o‘quvchida matnni tarixiy va madaniy kontekstda talqin qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga zamonaviy o‘zbek nasrida oldingi matnlar va klassik adabiyotga ishoralar estetik effekt yaratadi, lekin bu jarayon ilmiy asosda yetarlicha tahlil qilinmagan. Shu sababli intertekstual aloqaning estetik funksiyasini ilmiy yondashuv bilan tahlil qilish va misollar bilan ko‘rsatish zarur.

O‘zbek badiiy matnlarida intertekstual aloqa hodisasi matnning semantik qatlamlarini boyitish, o‘quvchi idrokini kengaytirish va badiiy-estetik ta’sirini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Nazariy jihatdan Baxtin, Kristeva va Genette yondashuvlari intertekstual aloqani turli nazariy kontekstlarda tushuntirish imkonini beradi va o‘zbek adabiyotida bu nazariyalarni tatbiq etish orqali matnni chuqurroq o‘rganish mumkinligini ko‘rsatadi. Mixail Baxtinning dialogizm nazariyasi matnlarni doimiy madaniy va adabiy dialog kontekstida tahlil qilishni ta’kidlaydi. Yuliya Kristeva esa har bir matnni avvalgi matnlarning transformatsiyasi sifatida o‘qish imkonini beradi va zamonaviy o‘zbek nasrida klassik adabiyotga ishoralar intertekstual transformatsiya orqali estetik effekt yaratishini ko‘rsatadi.

Intertekstual elementlarning yetarlicha tahlil qilinmaganligi muammosi badiiy matnni chuqur o‘rganish va uning estetik funksiyasini aniqlashda to‘siq bo‘ladi. Shu sababli sitata, alluziya, reminissensiya va parodiya kabi vositalarni tizimli ravishda aniqlash, ularni matn kontekstida tahlil qilish zarur. Masalan Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida tarixiy shaxslar va voqealarga ishora qiluvchi alluziya matnga estetik boylik qo‘shadi va o‘quvchi idrokini kengaytiradi. Shu yo‘l bilan intertekstual aloqaning matn tuzilishidagi o‘rni va o‘quvchiga ta’siri ilmiy asosda yoritilishi mumkin.

Metodologik bo‘shliqni to‘ldirish uchun intertekstual elementlarni aniqlash, tasniflash va ularning badiiy-estetik funksiyasini

baholash bo‘yicha tizimli yondashuv ishlab chiqish zarur. Bu esa klassik va zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida intertekstual aloqaning estetik ta’sirini aniq ko‘rsatish imkonini beradi. Shu bilan birga o‘quvchi idrokini murakkablashtiruvchi va matnga yangi ma’no qo‘shuvchi jarayonlarni tushuntirish ilmiy maqolalarga sifatli kontent qo‘shadi. Umuman olganda, intertekstual aloqa o‘zbek badiiy matnlarida nafaqat matnning semantik qatlamlarini boyitadi, balki uning estetik kuchini oshiradi, o‘quvchi idrokini kengaytiradi va badiiy tafakkurni rivojlantiradi. Shu sababli bu hodisani chuqur ilmiy tahlil qilish, nazariy va metodologik asoslarini aniqlash, shuningdek klassik va zamonaviy asarlardan misollar keltirib tahlil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, intertekstual aloqa o‘zbek badiiy matnlarini yanada boy, murakkab va o‘quvchiga ta’sirchan qiladi. Bu esa o‘z navbatida adabiyotshunoslik va o‘qituvchilik faoliyatida yangi ilmiy yondashuvlar va tahlil usullarini qo‘llash imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kristeva, J. *Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art*. New York: Columbia University Press. ISBN-13 (2024 Edition): 978-0231214551. ISBN-10 (2024 Edition): 0231214553
2. Bakhtin, M. *The Dialogic Imagination*. Austin: University of Texas Press
3. Barthes, R. *Image–Music–Text*. London: Fontana Press ISBN 978-0006861355
4. Genette, G. *Palimpsests: Literature in the Second Degree*. Lincoln: University of Nebraska Press ISBN **9780803270299**
5. Qo‘ng‘urov, R. *O‘zbek tilining stilistikasi*. Toshkent: «O‘qituvchi», 1983.15
6. Shomaqsudov, A., Rasulov, I. *O‘zbek tili stilistikasi*. Toshkent: O‘zbek *tili stilistikasi*. — T.: «O‘qituvchi», 1983. 15

EMOJI, STICKER VA GIFLARNING QO‘LLANILISHIDA GENDER OMILI: O‘ZBEK VA INGLIZ IJTIMOIIY TARMOQ FOYDALANUVCHILARI MISOLIDA

Mavlanova Nargiza Turayevna

Qarshi davlat universiteti, Xorijiy tillar fakulteti o‘qituvchisi

E-mail: mavlanova515@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy raqamli kommunikatsiyada keng qo‘llanilayotgan emoji, sticker va GIFlarning genderga bog‘liq xususiyatlari o‘zbek va ingliz ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu vizual-paralingvistik birliklarning pragmatik funksiyalarini